


**Q. ABDULLAYEVA, M. YUSUPOVA, S. RAHMONBEKOVA**

# **ODOBNOMA**

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
2-sinf uchun darslik sifatida tasdiqlagan*

**4-nashri**



**TOSHKENT — «MEHNAT» — 2004**

BBK 74.200.51 971  
J12

J 12 Abdullayeva Q. va boshq.

ODOBNOMA: 2- sinf uchun darslik. 4-nashri.

T.: «Mehnat», 2004, 96 b.

1.1.2. Muallifdoshlar.

BBK 74.200.51.

**Taqrizchilar:** Toshkejt shahridagi 298-maktabning oliv toifali o'qituvchisi **M.Azizova**,  
Ijtimoiy yo'nalishdagi Respublika maxsus gimnaziyasi o'qituvchilar  
**M. Tolipova, H. Roziqova, Z. Dolimov.**

Ushbu nashrga doir huquqlar himoya qilinadi va nashriyotga tegishlidir. Undagi matn  
va rasmlarni nashriyot roziligidan to'liq yoki qisman ko'chirib bosish taqiqlanadi.

J 4306020000 — 05  
M 359 (04) — 2004 buyurtma var. — 2004.

1030535  
3g,

ISBN 5-8244-1484-X

© «Mehnat» nashriyoti, 2004 y.



10



Shirin-shakar, aziz bolajonlar! Biz sizlarni baxtli, saodatli bo‘lib voyaga yetishingizni juda-juda xohlaymiz. Chunki siz mustaqil O‘zbekiston deb atalmish hur o‘lkada yashab ulg‘aymoqdasiz. Vatanimizning munosib farzandlari bo‘lish uchun yaxshi o‘qishingiz, odobli, axloqli bolalar qatoridan o‘rin olishingiz, mehnatsevar bo‘lib, o‘z ishlaringizni vaqtida bajarishingiz kerak.

Ota-onangiz, ustoz-murabbiylaringizning ayt-ganlarini a’lo darajada ado eting. O‘rtoqlaringizga mehribon va e’tiborli bo‘ling.

Ushbu kitob sizga ko‘p yaxshi ibratli ishlardan ma’lumot beradi. Unda o‘tmish ajdodlarimiz qoldirgan ibratli hikmatlar, ertaklar, rivoyatlar, nasihatlar bor. Siz ularni qunt bilan o‘qing, uka va singillaringizga ham so‘zlab bering. Hikmatlar va hadislarni yod oling, ularga albatta amal qiling. Sizlarga oq yo‘l, omad tilaymiz!



# I.O'ZBEKISTON — KELAJAGI BUYUK DAVLAT

## 1-SENTABR — MUSTAQILLIK KUNI



Senga aytsam aziz, yosh do'stim,  
Ko'p bepoyon o'lkalarni ko'rdim.  
Lekin yo'qdir dunyoda aslo,  
O'z tug'ilgan o'lkangdan a'lo.

## VATAN — MUQADDAS



Ona yerning tuprog‘i ona sutidek aziz.

Vatanning tinch — sen tinch.

## **ONA-VATANIMIZ BILAN FAXRLANAMIZ**

Biz yashayotgan go‘zal, bepoyon mamlakat O‘zbekiston deb ataladi.

Mamlakatimizda zavod va fabrikalar, ko‘rkam binolar, bog‘lar ko‘p. Ularning hammasi xalq uchun xizmat qiladi.

Biz o‘zimiz yashab turgan mamlakat — O‘zbekistonni ona-Vatan deb ataymiz. Buning sababi nimada?

Bu yerda qadimdan bizning ota-bobolarimiz yashaganlar. Biz ham shu yerda tug‘ildik, shu yerda o‘smoqdamiz.

Vatanimiz onamiz kabi azizdir. Chunki biz Vatanimiz bag‘rida yayrab o‘samiz. Yozda tog‘lar atrofida dam olamiz, bog‘larda bobodehqonlarimiz yetishtirgan shirin-shakar mevalardan yeb quvonomiz. Vatanimiz ravnaqi uchun kurashayotgan qahramonlarimiz bilan faxrlanamiz. Shu sababli ham biz Vatanimizni onamiz kabi sevamiz, qadrlaymiz.

Dunyoda mamlakatlar, shaharlar ko‘p. Lekin inson uchun tug‘ilib o‘sgan joyi — ona-Vatani hammasidan ham aziz va mo‘tabardir.

**Maqol.** Bulbul chamanni sevar,  
Odam — Vatanni.

**Savol va topshiriqlar.**

1. Matndan ona-Vatanimizni ta’riflagan jumlalarni toping.
2. Vatanimiz biz uchun qadrli dedik, nima uchun?
3. Maqolni daftaringizga yozing.

**VATANIM**

*Rustamali Mamadaliyev*

Uyim, hovlim, ko‘cham ham,  
Maktablar-u bog‘cham ham —  
O‘sha mening Vatanim.

Porlayotgan quyosh ham,  
Dala, qir, tog‘-u tosh ham —  
O‘sha mening Vatanim.

Jannatmakon bog‘lar ham,  
O‘chmagan chiroqlar ham —  
O‘sha mening Vatanim.

Humo qush parvoz etgan,  
Istiqlolga erishgan —  
O‘sha mening Vatanim.

Dunyo bugun tan olgan,  
O‘zbekiston atalgan —  
O‘sha mening Vatanim.

### Savol va topshiriqlar.

1. Shoir Vatanimizni qanday so‘zlar bilan ta’riflagan?
2. Siz ham Vatanimizni o‘z kuzatishlaringiz asosida ta’riflang.

## BILIB QO‘YKI, SENI VATAN KUTADI

*Tohir Malik*

Aziz bolajonlarim! Men sizlarga murojaat etmoqchiman. Siz, kichkintoylarga havasim kelyapti. Chunki siz oddiy maktab o‘quvchisi emas, siz

mustaqil O'zbekistonning dastlabki o'quvchilarisiz. Siz bugun faqat məktəbə emas, balki özəd Vatanning kelajagi sari qadam qo'ydingiz. Kelgusida O'zbekistondek qudratlı mamlakatning Prezidenti, Tashqi ishlər vaziri siz bo'lasiz. Oradan 25-30 yil o'tib, ulug' olim sifatida jahonga dong taratasiz.

Bu gaplar quruq gaplar yoki orzu emas. Haqqatda shunday bo'lishi kerak. Biz O'zbekistonni mustaqil davlat deb e'lon qildik. Lekin bu mustaqillikni mustahkamlash uchun hali ko'p dovonlar oshiladi. Sinovlar yengib o'tiladi. Buning uchun siz ham mehnat qilasiz, ter to'kasiz.

Biroq özəd mamlakatning chin farzandi bo'lish uchun hozirdan tayyorlanishingiz shart. Hozir sizdan ko'p narsa talab qilinmaydi. Siz uchun eng muhim — o'qish. Qur'onda ham, Muhammad alayhissalom hadislarida ham o'qishga da'vat etilgan ekan. Bu bejiz emas. Faqat ilm yaxshilik va yorug'lik yo'liga boshlaydi. Siz Yaponiya, Amerika olimlari kibernetika ilmini bizning bobomiz al-Xorazmiydan o'rganganini bilib olasiz.

Beruniy, Forobiy, Ulug'bek, Ali Qushchi singari olimlarimiz hayoti bilan tanishasiz. Ularning Vatan uchun qilgan ishlarini bilasiz. Ozodlik uchun

kurashgan Najmiddin Kubro, Jaloliddin Mangu-berdi, To'maris kabilarning jasorati bilan faxrlanasiz. "Men ham kelajakda ana shunday inson bo'lib, o'z Vatanim uchun ko'p ishlar qilaman" degan tuyg'u bilan yashaysiz.

**Maqollar.** Ilm — aqlning chirog'i.

Ilmsiz — bir yashar, ilmli — ming yashar.

Ilmni mehnatsiz egallab bo'lmas.

### Savol va topshiriqlar.

1. Matn nima uchun "Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi", deb nomlangan?
2. Maqollarni o'qing va yod oling.

## ORZULAR

*Rauf Tolib*

Daryo deydi: — Cho'llar ham  
Gul bo'lsin, gul bo'lsin  
Ona yer der: — Bug'doy-don  
Mo'l bo'lsin, mo'l bo'lsin!

Nihol deydi: — Insonga  
Bol tutay, bol tutay.  
Gul der: — Ko‘rgan ko‘zlarni  
Quvnatay, quvnatay.

Qushlar deydi: — Sayraylik  
Chamanda, chamanda.  
Bolalar der: — Yayraylik  
Vatanda, vatanda!

### Savol va topshiriqlar.

1. Daryo, nihol, qushlarning so‘zlarini takror o‘qing.
2. She’rni yod oling.

## DONO MOMO

(rivoyat)

*Malika Rahmonbekova*

Qadim zamonda bir qishloqda qurg‘oqchilik bo‘lib ekinlar qurib qolibdi. Daraxtlardagi mevalar ham pishib yetilmay qurib, yerga to‘kilib tamom bo‘libdi. Xalq juda qiynalib, ochlik azobini tortibdi.

Bu o'lkadagi ahvolni eshitgan qo'shni mamlakatdagi zolim podshoh shu o'lkaga urush e'lon qilibdi va son-sanoqsiz askarları bilan bostirib kela boshlabdi.


Xalq sarosimaga tushibdi, jon saqlab qolish uchun to'rt tarafga qocha boshlabdi. Shunda bir kulbada yashaydigan momo ularni to'xtatibdi:

— Bolalarim, azizlarim, — debdi momo baland ovozda. — Yurtni tashlab ketish — katta gunoh. Xalq boshiga tashvish tushib turgan paytda bunday qilish er kishining ishi emas. Irodangizni mustahkam tuting. Ochlik deb shunday qilayotgan bo'l-sangiz menda bir ne'mat bor, shuni bo'lib yediray, kuchingizga — kuch, quvvatingizga — quvvat qo'shiladi, — deb bir xalta ko'tarib chiqibdi. Odamlar qarab turishgan ekan, xalta bo'm-bo'sh emish. Oralarida sabrsiz odamlar ham bor ekan.

— Voy qari kampir-ey, axir xaltada hech vaqo yo'q-ku! — debdi ular. Shunda momo:

— Shoshma bolam, shoshish shaytonning ishi, — debdi-da xaltaning bir burchagidan bir mayizni olib ularga ko'rsatibdi.

— Mana, men aytgan ne'mat, bu oxirgisi, sizlarga nasib etgan ekan, — deb toshning ustiga



mayizni qo'yib, bo'la boshlabdi. Shunda sabrsiz odamlardan biri:

— Miyyasi achib qolgan kampir-ey, bizni yo'ldan qoldirib, hozir yovga qurbon qilmoqchimi?  
— debdi.

— Yo'q bolam, sabr tagi — sariq oltin, noumid bo'l manglar, mana mayizni qirq bo'ldim, olib og'izlaringga solinglar, o'zingizni qanday his etishingizni tezda bilasizlar, — debdi.

Odamlar mayizni tamshanib yebdilar. Shunda mo'jiza yuz beribdi. Hammalari o'zlarida kuch-quvvat sezibdilar va qochish haqidagi fikrdan qaytib, yov tomon birlashib boribdilar. Yov askarlari juda ko'p ekan. Uch kecha-kunduz jang-ujadaldan so'ng bii mayizni qirqa bo'lib yegan yigitlar to'g'ri momo oldiga kelib ta'zim qilibdilar. Chunki ular g'olib chiqib Vatanlarini yovdan himoya qilgan edilar.

### Savol va topshiriqlar.

- 1. Rivoyatda qaysi hikmatning ma'nosi ifoda etilgan?
- 2. Do'stlar bilan hamjihat bo'lishni odat qiling.

**Maqollar.** Ona yurting — oltin beshik.

El-u yurting omon bo‘lsa,  
Rang-u ro‘ying somon bo‘lmas.

**Bo‘lim yuzasidan savol va topshiriqlar.**

1. Bo‘limdagi qaysi matn va she’r sizga yoqdi, nima uchun?
2. Ona-Vatanimiz haqida gapirib bering.
3. "Vatanim" she’rida shoir nimalar haqida yozgan?
4. "Orzular" she’rini yoddan daftaringizga yozing.



## II.OTA-ONA — AZIZ VA MO‘TABAR



**Maqollar.** Ota-oná rozi — el rozi,  
El rozi — ota-oná rozi.

Inson odobi bilan,  
Osmon oftobi bilan go‘zal.

Hurmat qilsang, hurmat  
topasan.

Bola aziz — odobi undan aziz.

## **OTA-ONAGA HURMAT**

Ota-onalardan farzandlar uchun eng aziz va mo'tabar insonlardir. Ularni hurmatlash, ayab-asrash farzandlarning muhim burchidir. Ota-onaning buyruqlarini darhol bajarish, ularning ko'nglini shod etish farzandning vazifasi. Ota-onalardan farzandiga yaxshi xulq va odob o'rgatadi. Ota-onalardan ruxsatsiz uzoq joylarga ketmang, ularga yolg'on gapirmang, hamisha mu'loyim, yoqimli gapiring. Uyda va maktabda yaxshi tarbiya topib, go'zal xulqlarni o'zlashtirib borsangiz, komil inson bo'lib yetishasiz va ota-onangizga rahmat keltirasizlar.

*Alisher Navoiy*

Boshni fido ayla ato boshig'a,  
Jismni qil sadqa ano qoshig'a.  
Tun-kuningga aylagali nur fosh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh.

**Hadis.** Jannat onalar oyoqlari ostidadir.

**Savol va topshiriqlar.**

1. Qanday ishlarni bajarsak, ota-onalarimiz rozi bo'ladilar?

2. Siz ota-onangiz va kattalarning izzatlarini joyiga qo'yish uchun nimalar qilasiz?
3. Ota-onangiz buyurgan ishlarni o'z vaqtida bajarishga odatlaning.

## XO'P BO'LADI

*Mahmud Murodov*

Usmon har doim baqirib gapirardi. Bir kuni akasi Rahimjon:

- Usmon, tezroq kiyin, doktorga olib boramani, — dedi.
- Nega, kasal emasman-ku?
- Juda qattiq gapiradigan bo'lib qolding, ovozingni sal past qilmasalar, hammamizni kar qilib qo'yadiganga o'xshaysan, — dedi akasi.

Usmon avvaliga hayron bo'ldi, keyin gap nima-daligini tushunib jilmaydi. Lekin yana baqirib so'radi:

- Bo'lmasa qanday gapirish kerak?
- Ana shundan sekinroq.
- Mana bunday gapisam-chi? — dedi Usmon ovozini bir oz pasaytirib.
- Bundan ham sekinroq.

— Bo‘lmasa shundoqmi? — dedi Usmon yanada pastroq ovoz bilan.

— Xuddi ana shunday gapir. Odobli bola baqirmay, sekin gapiradi.

Usmon "Xo‘p bo‘ladi" dedi. Shundan keyin Usmon baqirmay, muloyim gapirishni odat qildi.

### Savol va topshiriqlar.

1. Usmon har doim qanday gapirar edi?
2. Akasi unga nima dedi?
3. Odobli bola qanday gapirishi kerak?
4. Yoqimli gapirishni odat qiling!

## KECHIRING, OYIJON!

Ahmadjon ko‘chada o‘rtoqlari bilan o‘ynab qolib, uyga kech qaytdi. Onasi tashvishlanib o‘tirgan ekan. U onasining holatini ko‘rib xijolat bo‘ldi va:

— Oyijon, meni kechiring, endi bunday qilmayman, — dedi. Onaning chehrasi biroz yorishi di va:

— Ahmadjon, sen aqli bolasan, men senga ishonaman, — dedi.

## Savol va topshiriqlar.

1. Ahmadjon nima uchun onasidan kechirim so‘radi?
2. Siz qaysi vaqtarda kimgardan kechirim so‘ragansiz?
3. Bemahalda ko‘chada yurmang.

**Maqollar.** Oltinning eskisi bo‘lmas,  
Ota-onaning — bahosi.

**“Ibratli bola” mavzusida kichik hikoya tuzing.**

**Reja:**

1. Ibratli bola qanday bo‘ladi?
2. Ularning qaysi xislatlari sizga yoqadi?
3. Siz qanday ishingiz bilan ibrat ko‘rsatgansiz?

## AYASINI AYASIN

*Po ‘lat Mo ‘min*

Nima yesa Xanifa,  
Ayasiga ilinar.  
Xanifaning bu bilan  
Iliq mehri bilinar.

Ayajoni charchasa,  
O‘tiradi yoniga.  
Shirin so‘zlab, kuldirib,  
Orom, berar joniga.

Achom-achom qiladi,  
Yuzlarini silaydi.  
Maqtashib bir-birini,  
Yaxshiliklar tilaydi.

Hammadan ham Xanifa  
Yaxshi ko‘rar ayasin.  
Xanifadek hamma ham  
Ayasini ayasin.  
Xanifalar yashasin!

**Maqol.** Ona bilan bola — gul bilan lola.

## SHOGIRDLIK ODOBI

Ustozlarga shogird bo‘lish — katta baxt. Lekin shogird ustozni oldida shogirdlik odobini saqlashi kerak. Bular:

- shogird ustoz oldida o‘zini kamtar tutishi;
- ustozning hamma topshiriqlarini a’lo darajada bajarishi;
- ustozning gaplarini diqqat bilan tinglashi, tushunmay qolganda uzr so‘rab tushuntirib berishlarini iltimos qilishi;
- ustozni hamisha mamnun qilish uchun vazifalarni sifatli va o‘z vaqtida bajarishi;
- hech qachon yolg‘on gapirmasligi, ustoz ko‘nglini ranjitmasligi kerak.

## **Savol va topshiriqlar.**

1. Shogird qanday bo‘lishi kerak?
2. Shogird tushsangiz yuqoridagilarga amal qiling.

## **TABRIKLASH ODOI**

Ota-onalarni, oila a’zolarini, yaqin qo’shni va qarindoshlarni, ustoz-murabbiylar va do’stlarni bayram va eng quvonchli kunlarda tabriklaymiz.

Tabrik og‘zaki yoki yozma tarzda bo‘lishi mumkin. Masalan, tug‘ilgan kun munosabati bilan tabrik xatda shunday so‘zlar yoziladi: "Do‘stim Tohir, seni eng quvonchli kuning bilan tabriklayman. Senga sog‘liq va uzoq umr tilayman!".

Bayram kunlari shunday tabriklar yozish mumkin:

"Aziz onajon, Sizni bayram bilan tabriklayman. Sizga salomatlik, baxt-saodat tilayman! Baxtimizga doimo omon bo‘ling!"

## **Savol va topshiriqlar.**

1. Kimlarni tabriklagansiz?
2. Tabrikda qanday so‘zlar yozgansiz?

3. Oila a'zolarингиз ва яқин до'стларингизнинг түг'илган кунлари билан табриклашни унutmang.

## MEHR

Nasiba yo'lда ketayotganda yarador yotgan qushchani ko'rib qoldi.

Uni qo'liga olib erkaladi. So'ng uyga olib kelib yuvib-tarab parvarish qildi.

Qushcha sog'ayib ketdi. U Nasibaga o'r ganib qoldi. "Chiriq-chiriq" deb erkalanadigan bo'ldi.

Mehrli bo'lish yaxshi. Agar Nasiba qushchani ko'r may, beparvo o'tib ketganda nima bo'lar edi?

### Savol va topshiriqlar.

1. Bolalar, hayvon va qushlarga qanday munosabatda bo'lasiz?
2. Qaysi uy hayvonlarini parvarishlaysiz?
3. Qish faslida qushlarga don yoki non ushog'ini berishga odatlaning.



## **QIZ BOLALAR ODOBI**

Qizlar tabiatan nozik, nafis bo‘ladilar. Qiz bola oila quvonchi, ota-onaning faxri, iftixoridir.

Qizlar didli, farosatli bo‘lib voyaga yetmoqlari, o‘zlarining go‘zal xulqlari, xislatlari bilan ota-onas, oiladagilar, qo‘ni-qo‘shni, ustoz-murabbiylar hurmatini qozonishlari kerak.

Qiz bolaning muomala madaniyati hammani xursand qiladigan, bajargan ishlari a’lo darajada bo‘lgani ma’qul.

Xalqimiz qiz bola haqida deydi:

"Qiz bola — misoli qizil gul".

Muloyim va lobar qizlarning so‘zlari, suhbatlari ko‘ngilni oftobday yoritadi. "Labbay", "Xo‘p bo‘ladi", "Rahmat", "Marhamat", "Yaxshi borib keling" kabi so‘zlar bilan muomala qiladigan qizlarni keksalar yaxshi ko‘radilar va sevinib duo qiladilar. Bunday qizlar kelajakda baxtli bo‘ladilar.

Aqli qizlar shirinso‘z, ozoda va tejamli bo‘ladilar. Ularning onalari shunday fazilatlarni yoshlikdan o‘rgatadilar.

## Savol va topshiriqlar.

1. Qizlar qanday fazilatlarga ega bo‘lishlari kerak?
2. Qizlarning muomalasi haqida misollar ayting.



**Qizcha onasidan nima qilib berishni so‘rayapti?**



**Qizcha** nima qilayotganini so‘zlab bering.  
Har ikki qizning ishini taqqoslang. Siz kimdan  
o‘rnak olmoqchisiz?

### O‘G‘IL BOLALAR ODOBI

O‘g‘il bolalarga tabiat kuch-quvvat, iroda, chidam ato etgan. O‘g‘il bolalar aqlli, farosatli, mard bo‘ladilar. Ular yaxshi o‘qishlari, mehnatsevar bo‘lishlari kerak.

Oiladagi qiyin ishlarni o‘g‘il bolalar bajaradilar. O‘g‘il bolalar ko‘p gapirmasliklari, og‘ir va vaz-



min bo‘lishlari, kattalarni hurmat qilishlari, o‘qish va ishda namunali bo‘lishlari lozim.

Shoir o‘g‘il bolalarga qarata shunday degan:

A’lo mamlakatning a’lo farzandi,  
Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi!

(*G‘afur G‘ulom*)

Anvarni hamma hurmat qiladi. Nima uchun? — deb so‘rarsiz. Anvar intizomli va odobli bola. U hammaga qo‘lidan kelganicha yordam beradi. Sinfdoshlari va qo‘shni-o‘rtoqlari bilan yaxshi munosabatda bo‘ladi. Oilada ota-onasi ham Anvarning qilgan ishlaridan xursand.

Anvar tengi Rustam degan bola ham mahallamizda yashaydi. Rustamni odobli deb bo‘lmaydi. Duch kelgan yerda koptok o‘ynab, qo‘ni-qo‘shnilarning derazalarini sindiradi. "Men sindirmadim", — deb yolg‘on ham gapiradi.

Bolalar, aytingchi, siz qaysi bolaga o‘xshashni xohlaysiz?

## AJDODLARIMIZ BILAN FAXRLANAMIZ

### ALISHER NAVOIY

Bobokalonimiz Alisher Navoiy buyuk shoir, olim va davlat arbobi bo'lganlar. 5-6 yoshlardayoq ko'p she'r va dostonlarni yod olganlar.

Bobomiz bizga juda ko'p asarlar yozib qoldirganlar. Ular orasida odob-axloqqa doir kitoblar ham bor. Alisher Navoiyning hikmatli so'zлari biz uchun hamisha aziz.



1. Befoya so'zni ko'p aytma,  
Foydali so'zni ko'p eshiturdirin qaytma.
2. Izzat tilasang, kam de,  
Sihat tilasang, kam ye.
3. Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,  
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.
4. Oz-oz o'rganib, dono bo'lur,  
Qatra-qatra yig'ilib, daryo bo'lur.

## HIKOYA

Oybek

Alisherning otasi G‘iyosiddin bir kesim pista holva bilan o‘g‘ilchasini mehmon qildi.

To‘rt yoshlar chamasidagi Alisher kelishgan, xipcha gavdali bo‘lib, ko‘zlarida aql ko‘rinar edi. U holvani yeya turib, majlisni odob bilan kuzatar edi.

— Otni yaxshi ko‘rurmisen, Alisherbek? — deb so‘radi askarlardan biri.

— Ko‘p yaxshi ko‘rurmen, lekin ... — dedi otasiga termulaturib Alisher, — ot choptirishdan fikr yuritish yaxshiroqdir, chamamda.

Hamma hayratdan qotib qolgan edi.

— Ofarin, — dedi keksa mehmonlardan biri. — O‘qiting o‘g‘lonni, ilmning cho‘qqisiga arziydi o‘g‘lingiz.

— Niyatimiz xuddi shunday, o‘qutmoqni orzu qilurmiz. Ziyrak bola, picha sho‘xligi bor.

— Bolaning sho‘xi yaxshi, shunga ko‘ra fikri ham yugurik bo‘lur; fikrning chaqmog‘i — ilmning chaqmog‘i, — dedi domla Murod.

### Savol va topshiriqlar.

1. Alisher Navoiy kim bo‘lgan?
2. Alisher Navoiyning hikmatli so‘zlarini daf-taringizga yozing va yod oling.

## **ALLA – HAYOT QO‘SHIG‘I**

"Alla" qadim-qadimdan onalarimiz tomonidan kuylab kelingan. Allada ularning orzu-umidlari, farzandlariga tilaklari kuylangan. Alla tinglagan bola odobli, aqli bo‘ladi, yoqimli qo‘shiqlar ohangini tez o‘rganib oladi.

Dunyoning go‘zalligi onaning alla aytishi va bolaning alla ohangidan orom olayotganligida ko‘rinadi. Ana shu holatga qarab: "Ona bilan bola — gul bilan lola" deydilar.

Allani faqat onalarimiz kuylamaydilar, qizlar ham, ba’zan bosh o‘g‘il farzand ham ukasi yoki singlisiga "Alla" aytib beradilar.

### **ONA ALLASI**

*Muhammadjon Qo‘shoqov*

Oppoqqinam, o‘rgilay,  
Quvnoqqinam, o‘rgilay.  
Javdiragan ko‘zları  
Munchoqqinam, o‘rgilay.  
Allayo-alla.

Boray desang maktabing,  
O‘qiy desang kitobing,  
Ne desang bor, oftobim,  
Qo‘zichog‘im, toychog‘im,  
Allayo-alla.

Seniki shu yer, osmon,  
Seniki tinch, keng jahon,  
O‘g‘lim yayra, bo‘l omon,  
Baxtingga xalq posbon,  
Allayo-alla.

- Hadislar.**
1. Kimki ota-onasining roziliginini olgan bo‘lsa, unga qanday yaxshi! Uning umri uzoq bo‘ladi.
  2. Xola ham hurmat bobida ona bilan barobardir.
  3. Qo‘shni bilan yaxshi aloqada bo‘ling-lar.

## OTA-ONA DUOSI

*Saf o Ochil*

Olmasam gar ko'nglim to'lmas,  
Ota-onam duosini  
Olmasam gar yo'lim bo'lmas,  
Ota-onam duosini.

Qayda bo'lmay yo'qlagayman,  
Mehring asrab saqlagayman.  
Axir, qanday oqlagayman,  
Ota-onam duosini.

Urim bo'yi g'amin yerman,  
So'zin durga alishtirmam.  
Siym-u zardan ortiq derman,  
Ota-onam duosini.

Saf o Ochil, holing so'rgum,  
Mudom boshim egib turgum.  
Qancha bo'lsa ham oz ko'rgum  
Ota-onam duosini.

## YAXSHI SO‘Z

*Tolib Yo‘ldosh*

Gapirganda “siz”lab gapir,  
“Sansan”lama.

Hammani ham sen o‘zingga  
Teng sanama.

Katta-kichik degan axir  
So‘zimiz bor.

Qarshimizda kim turibdi,  
Ko‘zimiz bor.

Hurmat degan gap bor elda,  
Yodingda tut.

Pala-partish so‘z aytishni  
Darhol unit.

### Topshiriqlar.

1. She’rni yodlang.
2. O‘rtoqlaringiz bilan sizlab gaplashishni  
odat qiling.

## **Bo‘lim yuzasidan savol va topshiriqlar.**

1. Ota-onani hurmat qilishga doir nimalarni o‘qidingiz?
2. Alisher Navoiy bobomiz bizga qanday nasihatlar qilganlar?
3. Siz xato qilgan ishlaringizni to‘g‘rilash uchun nima qilasiz?
4. Shogirdlarning ustoz oldidagi burchlarini bilib oldingizmi?
5. Maqol va hadislardan namunalar aytинг.



### III. YAXSHI XISLAT – GO‘ZAL FAZILAT



Yaxshi bo‘lsang, o‘zarsan,  
Yomon bo‘lsang, to‘zarsan.

O‘zing yaxshi — olam yaxshi.

Ko‘p o‘yla, oz so‘zla!

Yaxshilardan ibrat ol,  
Yomonlardan yiroq bo‘l.

## SALOMLASHISH ODOBI

Insonlar bir-birlarini ko‘rganlarida "Assalomu alaykum" deydilar. Assalomu alaykum degani — "Sizga tinchlik tilayman!" degani.

Biz ham erta tongdan tanish, notanish odamlarga qo‘limizni ko‘ksimizga qo‘yib salom beramiz.

Salomlashishning ham qoidalari bor:

Xonaga kirgan kishi birinchi bo‘lib o‘tirganlarga:

— Assalomu alaykum! — deb salom beradi.

Alik oluvchi "Vaalaykum assalom" deb javob qaytaradi.

Katta kishilarga ham yoshlar birinchi bo‘lib hurmat bilan salom beradilar.

## SALOM

*Tolib Yo‘ldosh*

Salom bilan boshlanar

Bilsang odob va axloq.

Salom bilan begona

Bo‘lar tezda do‘sst-inoq.

Salom, assalom ming-ming

So‘zlar ichra durdona.  
Salom har bir bolaning  
Odobidan nishona.

**Maqol.** Odobning boshi — Assalomu alaykum.

**Savol va topshiriqlar.**

1. Kimlar bilan qanday salomlashish kerak?
2. Salomlashish haqida ertaklardagi voqeahodisalarini eslang.

**Namuna:** Saloming bo‘lmasa, ...

**Hadis.** Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar.  
Shunda o‘rtalaringizda mehr-u oqibat paydo bo‘ladi.

Chehra — yuz, begona — notanish

## OFTOB HAM YAXSHI, ODOB HAM YAXSHI

*Po'lat Mo'min*

Oftob yaxshimi,  
Odob yaxshimi?  
Oftob berar nur,  
Odob-chi — huzur.

Lolalar uchun  
Oftob yaxshidir.  
Bolalar uchun  
Odob yaxshidir.

Oftob bo'lmasa,  
Qorong'i tushar.  
Odob bo'lmasa,  
G'am-qayg'u tushar.

Oftob ko'rinar  
Tog', tepalikda.  
Odob ko'rinar  
Salom-alikda.

Odob har kimning  
Yaxshi so'zida.  
Odob har kimning  
Yuzi-ko'zida.

Olamning yuzi  
Oftobdan isir.  
Odamning yuzi  
Odobdan isir.

Olamning doim  
Oftobi bo'lsin!  
Odamning doim  
Odobi bo'lsin!

### Savol va topshiriqlar.

1. Shoir nima uchun bu she'rda odobni oftobga o'xshatgan?

## 2. She'rni qismlarga bo'lib o'qing va ma'nosini so'zlab bering.

### TONGDA

*Rauf Tolib*

Ahmad tongda uyg'ondi-yu yugurib hovliga chiqdi. Qarasa, baroq mushugi unga qarab kelyapti. Boshini egib, oyoqlari ostida erkalana boshladi.

— Miyov-miyov!

Ahmad hayron bo'lib turdi-da, yo'lida davom etdi. Shunda tong shamoli g'uvillab unga ergashdi. Yaproqlarni shitirlatib, kuylay boshladi:

— G'uv-g'uv...

Qayerdandir bir chumchuqcha uchib kelib, daraxt shoxiga qo'ndi. So'ngra Ahmadga qarab, sayray boshladi:

— Chiriq, chiq-chiriq ...

Ahmad qushchaning qo'shig'ini berilib tingladida, yana yo'lga tushdi. Qarangki, qadrdon kuchugi Qoplon inidan chiqib qoldi. U ham to'ppa-to'g'ri Ahmadning oldiga chopib keldi. Dumini likillatib vovulladi:

— Vov-vov-vov!

Ahmad hovuz bo'yiga keldi. Suvda g'oz va o'rdaklar suzib yurishardi. Ular qirg'oqqa yaqinroq kelib qichqirishdi:

— G'oq-g'oq-g'oq!

— G'a-g'a-g'a!

Shu payt qo'shni uyning eshigi ochilib, Nigora ko'rindi. U jilmayib:

— Salom, Ahmad! — dedi.

— Salom, Nigora! — javob berdi Ahmad ham.

Shundagina u yo'lda uchratgan do'stlari — mushuk, shamol, qoplon, g'oz va o'rdaklarning unga nima deyishganini tushunib oldi.

Bolalar, erta tongda qanday so'z aytilishini bilasizmi?

### Savol va topshiriqlar.

1. Tongda qaysi hayvon va parrandalar ovozi eshitiladi?
2. Ahmadga kim salom berdi?
3. Oilada kattalar bilan qanday salomlashishingiz haqida so'zlab bering.

## SO‘ZLASH VA NUTQNI TINGLASH ODOBI

Insonni so‘zlashiga qarab baho beradilar. So‘zlashning ham ma’lum qoidalari bor:

- fikrni jamlab, shoshilmay so‘zlash;
- bemavrid so‘zlamaslik;
- so‘zlashganda atrofdagilarga ochiq chehra bilan qarash;
- ko‘p gapirmaslik;
- nutqda keraksiz so‘zlarni ishlatmaslik.
- kishilar gapirayotganda oraga qo‘silmaslik, so‘zni bo‘lmaslik;
- gapirayotgan kishining gapini oxirigacha, diqqat bilan tinglash.

**Nasihat:** So‘zni o‘z joyida so‘zla, joyida aytilmagan so‘z, agar u yaxshi so‘z bo‘lsa ham yomon ko‘rinadi.

So‘zlaganingda ma’noli gapir. Agar so‘zning ma’nosini bilmay gapirsang, qushga o‘xshaysan, bunday qushni to‘ti deydilar.

## Savol va topshiriqlar.

1. So‘zlashganda nimalarga e’tibor berish kerak?
2. Ota-bobolarimiz ko‘p ezma bo‘lma deb tanbeh beradilar. Ko‘p gapirish ezmalikdir. Shuning uchun “Oz so‘zla — soz so‘zla” degan maqolga amal qiling.

bemavrid — o‘rinsiz

## ODOBNING BOSHI — TIL (ertak)

Bor ekan, yo‘q ekan, bir shaharda Odil degan bola yashar ekan. U bo‘lar-bo‘lmasga o‘rtoqlarini so‘kib, xafa qilaverar ekan. Bir kuni bir o‘rtog‘iga yomon so‘z aytmoqchi bo‘lganda, Tili yo‘qolib qolgandek tovushi chiqmabdi. Qo‘rqidan rangi oqarib ketibdi, og‘ziga barmog‘ini tiqib ko‘ribdi. Xayriyat, Til joyida ekan.

Yugurbanicha uyiga boribdi. Onasi hovli supurayotgan ekan. Odil unga gapirmoqchi bo‘lib, rosa urinibdi, lekin bitta so‘z ham aytolmabdi. Buni sezgan onasi, “bolam soqov bo‘lib qolibdi”, deb

qo‘rqib ketibdi va darrov tabibga olib boribdi. Tabib Odilni ko‘rib:

— Bolangiz soppa-sog‘, — debdi.

Ona-bola yana bir necha tabibga borishibdi. Hech qaysi tabib boladan kasal topa olmabdi. Ona o‘g‘lining ahvoliga achinib, zor-zor yig‘labdi. Unga rahmi kelgan bolaning Tili birdan:

— Ona, yig‘lamang, — debdi.

— Gapir, yana gapir! — onasi suyunib ketibdi.

Shunda Til onaga debdi:

— O‘g‘lingiz yomon so‘zlarni juda ko‘p aytadi. Bunday bolaga xizmat qilishdan uyalaman. Shirin so‘zlaydigan bolalarga havasim keladi. Axir, Odilning tili ularning tilidan kam emas-ku?

Ona o‘g‘lining gunohi uchun Til oldida rosa izza bo‘libdi. Bundan xijolat tortgan Odil hamma yomon so‘zlardan voz kechibdi. Shunday qilib, Odil bilan Til yana inoqlashib ketishibdi.

### Savol va topshiriqlar.

1. Insonlar bir-birlari bilan qanday so‘zlashishlari kerak?

2. So‘zlashish qoidasini bilib oling va unga amal qiling.



NAVRO'ZI OLAM MUBORAK!



8

*Mart*



## **Mehribon buvijon!**

*Sizni bahor bayrami Navro'z bilan qutlayman. Doimo sog'-salomat bo'ling. Bizning baxtimizga uzoq umr ko'ring.*


**Sevimli nabirangiz** \_\_\_\_\_

## **Aziz onajon!**

*Sizni xotin-qizlar bayrami 8- Mart bilan tabriklayman. Sizga salomatlilik va baxt tilayman. Baxtimizga doimo omon bo'ling.*

**Farzandingiz** \_\_\_\_\_

**Ushbu 2 betni ajratib, chiziqlar bo'ylab kesib olib foydalaning.**



TABRIKNOMA \* NASHRIYOT SOVG'ASI \* TABRIKNOMA \* NASHRIYOT SOVG'ASI

## **Qadrli do'stim**

*Seni yurtemizning eng katta bayrami —  
Mustaqillik kuni bilan tabriklayman. Senqa o'qish  
va ishlaringda muvaffaqiyatlar tilayman.  
Do'stligimiz abadiy bo'lsin.*

## **Sinfdosning**

## **Hurmatli ustoz**

*Sizni bayram bilan chin yurakdan tabrik-  
layman. Biz shogirdlar baxtiga doimo salomat  
bo'ling.*

## **Shogirdingiz**

## **INSONPARVARLIK**

Inson yaxshiliklar qilish uchun bu dunyoda yashaydi.

"Yaxshilik yerda qolmas", — degan hikmat insonlarning bir-biriga mehribon bo'lishga undaydi.

Atrofingizga qarang, kimlar bemor, yordamga muxtoj, kimlar keksayib qolgan, ularga ham ko'maklashish lozim. Jonivorlarni ham unutmang, ularga yemish berish kerak. Xullas, sizning yordamingiz bilan bemorlar tuzaladilar, qariyalar xursand bo'lib, sizni duo qiladilar, jonivorlar siz bilan do'st-inoq bo'ladilar.

Odamlar bir dono keksadan: "Insonparvarlik nima?" — deb so'rashibdi. U shunday javob beribdi:

— Inson yaxshilik qilish uchun dunyoga keladi. Odamlar bir-birlariga yaxshilik qilsalar, bu insonparvarlikdir. Bularning hammasi baxt-saodatga va yaxshilikka xizmat qiladi.

### **Savol va topshiriqlar.**

1. Insonparvarlik deganda nimani tushunasiz?
2. Muhtoj kishilarga yordam berishni unutmang.

3. "Olqish olgan omondir, qarg'ish olgan yomondir" maqolining ma'nosini aytинг.
4. Yaxshi fazilatlarni daftaringizga yozing.

## **MAQTANCHOQLIK – YOMON ODAT, KAMTARLIK BERAR SAODAT**

Inson kamtar bo'lishi kerak.

"Kamtarga kamol, manmanga zavol" degan maqol bor. Kamtar insonni hamma hurmat qiladi va inson bu xislati bilan elga taniladi.

Ulug' ajdodlarimiz Ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Ulug'beklar hayotda ko'p xayrli ishlar qilishgan, lekin bu insonlar kamtar bo'lishgan. Dunyoga mashhur bo'lgan bu insonlar hech maqtanmaganlar.

### **Savol va topshiriqlar.**

1. Maqtanchoqlik yomon odat ekanligi haqida misollar keltiring.
2. Siz hech qachon maqtanganmisiz?
3. Kamtarlik sifatlarini gapirib bering.

## Hikmatlar.

Ey farzand, ko‘p bil-u, oz so‘zla, kam bilsang,  
ko‘p so‘zlama, chunki aqlsiz kishi ko‘p so‘zlaydi.  
Jim o‘tirish salomatlik sababidir. Ko‘p so‘zlovchi  
aqli odam bo‘lsa ham, xalq uni aqlsiz deydi.  
("Qobusnama"dan)

Buyuk — ulug‘, katta, baland, yuksak

## SHER VA CHUMOLI

*Abdulla Madaliyev*

Katta davrada sher mardonavor qadam tashlab,  
hayvonlarni o‘zi bilan kuch sinashga chaqiradi.

Hammayoq jimjit, hech bir hayvonning sher  
bilan bellashishga yuragi dov bermasdi.

Shu yerdan o‘tib borayotgan chumoli "nima gap  
ekan", deb davra tomon burilibdi.

Sher hamon:

— Marding bo‘lsa maydonga chiq! — deb keri-  
lardi.

Chumoli atrofdagi hayvonlarga sinchkovlik bi-  
lan boqibdi. Ularning hech biri kurashishga jur’at  
etmabdi.



Shunda chumoli:

— Sen bilan men bellashaman, — debdi.

Buni eshitgan sher o‘rmonni larzaga keltirib, qahqaha otibdi.

— Meni mazah qilyapsanmi? — debdi g‘azabi qaynab, — axir sen nafasimning shamoligayoq pirpirak bo‘lib ketasan-ku.

— Yo‘q, men jiddiy gapiryapman, sen bilan haqiqiy kuch sinamoqchiman, — debdi chumoli qat‘iy ohangda.

Davradagi katta-kichik hayvonlarni vahima bosibdi. Ular sher bilan chumoliga boqishib dong qotishibdi.

— Xo‘s, sharting qanday? — so‘rabdi sher.

— Men o‘z vaznim bo‘yicha, keyin sen ham o‘z vazning bo‘yicha yuk ko‘tarasan, — debdi chumoli.

— Bori shumi? — debdi sher mensimay va o‘z vazniga teng keladigan yukni havoda o‘ynatibdi.

— Endi yukni ikki baravariga oshiramiz, — debdi chumoli.

Bu shartni ham sher eplashtiribdi. Lekin keyingi shartlarni bajarish unga oson bo‘lmabdi.

— Endi navbat o‘z vaznimizga o‘n barobar keladigan yukni ko‘tarishga, — deya da’vat qilibdi chumoli va bu yukni ham chapdastlik bilan yelkasiga ortib, javlon ura boshlabdi.

Sher esa o‘ziga o‘n barobar keladigan yukni ko‘tarishga qancha tirishmasin, joyidan qo‘zg‘ata olmabdi.

— Har kim o‘z o‘rnida, o‘z imkoniyatiga ega,  
— deb g‘olib chumoli davradan chiqib ketibdi.

jur’at — shiddat, jasorat, mardlik  
qahqaha — kulgi

## ARIQ VA SUV

*Ibrohim Donish*

Pishqirib, toshib,  
Ariqdan oshib.  
Maqtanardi suv,  
Shunday derdi u:

— Mensiz hech narsa  
Ololmas nafas.  
Mensiz, ha mensiz,  
Gullar o‘solmas.

— Hoy to‘xta, dedi,  
To‘satdan kimdir.  
Biz ariqlarni  
Unutma, axir.

Senga to‘g‘ri yo‘l  
Ko‘rsatamiz biz.  
Insonga doim,  
Xizmat etamiz.

Shundan beri suv  
Maqtamas o‘zin.  
Rosa o‘ylab, so‘ng  
So‘zlaydi so‘zin.

### Savol va topshiriqlar.

1. Suv nimalar deb maqtandi?
2. U qanday so‘zlarni eshitib, xijolat bo‘ldi?
3. Maqtanchoq bolalar haqida so‘zlab bering.

## ROSTGO‘YLIK VA HALOLLIK HAQIDA

Rostgo‘ylik va halollik insonning eng yaxshi fazilatidir. Xalqimizning "Boshingga qilich kelsa ham, rost gapir" degan maqoli, bejiz aytilmagan. "Yolg‘onning umri qisqa" degan dono gap bor.

Rostgo‘y odam bexavotir bo‘ladi. Yolg‘onching esa halovati yo‘qoladi.

Yolg‘onchining gapiga hech kim ishonmaydi, uni odamlar hurmat qilmaydilar.

"Yolg‘onchining holiga voy" degan so‘zлarni eshitganmisiz? Unga zarur bo‘lgan vaqtda ham yordam bermaydilar. Yolg‘onchilik qilgani uchun u e’tibordan qoladi.

qing‘ir — qiyshiq, noto‘g‘ri  
tahlika — sarosima, qo‘rquv

### Savol va topshiriqlar.

1. Rostgo‘ylik deganda nimani tushunasiz?
2. Yolg‘onchilik — yomon illat ekanligiga misollar keltiring.

## HALOLLIK

(o‘zbek xalq ertagi)

O‘tgan zamonda bir dehqon bo‘lgan ekan. Uning kambag‘al oshnasi bor ekan. Kunlardan bir kuni u dehqondan bir tanob yerini sotishni iltimos qilibdi. Dehqon yerning bir chekkasidan joy ajratib, kambag‘al oshnasiga sotibdi.

Yerni olgan odamning bolalari ko‘p ekan. Yer sotib olinganidan juda sevinibdi. Bir qalin og‘aynisidan qo‘sish ho‘kiz olib, yerni bir marta haydab chiqibdi. U ikkinchi marta haydaganida, bir nima omoch tishiga tegibdi. Dehqon parvo qilmay hayday beribdi. Qaytib o‘scha yerga kelganida, omoch tishi yana haligi narsaga urilibdi. Kambag‘al dehqon: "Ilgari bu yerda daraxt bo‘lgan, uning to‘nkasi qolib ketgan, shekilli", — deb o‘ylabdi. U ketmon olib kelib, omoch tishiga qadalgan narsani kavlay boshlabdi. Nihoyat, u yerdan xumcha chiqibdi. Uni ochib qarasa, ichi to‘la tilla emish. Dehqon yerning qolgan qismini ham haydab, urug‘ini sepibdi. So‘ng ho‘kizlarni egasiga topshiribdi. Endi o‘zi xumchadagi tillani ko‘tarib, to‘gri yer sotgan dehqon oshnasining uyiga boribdi. U oshnasiga:

— Sizdan olgan yerimni haydayotgan edim, mana shu xumchani topib oldim. Tilla sizniki bo‘lsa kerak deb o‘ylab, uni olib keldim, — debdi.

Dehqon kambag‘alga:

— Men sizga o‘scha yerni sotganman. Shu yerda nima bo‘lsa, u sizniki bo‘ladi. Men yerning ichida

nima borligini bilmaganman. Sizga xudo beribdi. Bola-chaqangizga ishlating, — deb xumchani olmabdi.

Kambag‘al dehqon: „Yo‘q men buni ololmayman, uni olsam o‘g‘ri, jinoyatchi bo‘lib qolaman”, — deb yana boy dehqonga uzatibdi. Nihoyat, ular qozining oldiga borishibdi. Qozi ularning gapini eshitib:

“Bo‘lmasa, qishloqdagi yetim-yesir va beva-bechoralarga bo‘lib beringlar”, — deb maslahat beribdi. Bunga dehqon ham, kambag‘al dehqon ham rozi bo‘lishibdi. Shunday qilib, ular tillani qishloqdagi beva-bechoralarga, kambag‘al, yetim-yesirlarga berishibdi.

Kambag‘al dehqon esa, o‘z mehnati bilan halol kun ko‘rib, murod-u maqsadiga yetibdi.

### Savol va topshiriqlar.

1. Dehqon nima uchun yer sotdi?
2. Siz kambag‘al dehqon o‘rnida bo‘lgingizda nima qilgan bo‘lardingiz?
3. Ertakni o‘z so‘zlarining bilan aytib bering.

## DO‘STLASHISH ODOI

Inson uchun do‘st kerak. Do‘stlari bor odam baxtlidir. Do‘st tutishning ham odobi bor:

- do‘stingizni hurmat qiling;
- do‘stingizdan hech narsani ayamang;
- do‘stingizning muvaffaqiyati bilan quvoning;
- do‘stingizni sizga qilayotgan yordami uchun minnatdorchilik bildiring va siz ham unga har ishda yordamlashing;
- do‘stlikni abadiy saqlang.

Dono xalqimizning "Do‘st topish oson, lekin uni saqlamoq qiyin" degan maqoliga e’tibor bering. Bu fikrning ma’nosini uqib oling va doimo yodda saqlang.

Yusuf xos Hojib do‘stlashish odobi haqida shunday deydi:

"Do‘st-o‘rtoqlarning ko‘pi yaxshi. Ularni ko‘paytirish — yaxshi xislat. Yomon fe’l-atvor egalarini zinhor do‘st tutmangiz.

Do‘stingizning sizga qanchalik muhabbatiborligini bilmoqchi bo‘lsangiz, uning eng yaxshi ko‘rgan narsasini so‘rang. Shunda hamma narsa ayon bo‘ladi".

## **Savol va topshiriqlar.**

1. Kimlar bilan do'stlashish kerak?
2. Do'stlaringizning ismlarini aytинг.
3. Siz nima uchun ular bilan do'stlashgansiz?
4. Do'stlik haqida aytilgan maqolni yod oling.

## **AMIR TEMUR BOBOMIZNING DO'STLIK HAQIDA AYTGAN O'GITLARI**

Yaxshini yomon kunda sina.

\* \* \*

Do'stlik sinovda chiniqadi.

\* \* \*

Mergan ovda bilinar, botir yovda.

\* \* \*

Chin do'st uldurki, do'stidan hech qachon ranjimaydi. Agar ranjisa ham uzrini qabul qiladi.

**Maqol:** Do'st boshingga ish tushganda bilinadi.

## **Savol va topshiriqlar.**

1. Allomalar do'stlik haqida nimalar deganlar?
2. Do'stlik haqida aytilgan maqolni yod oling va u haqida hikoya qiling.
3. Do'stlik haqida yana boshqa maqollar toping.

## **Bo'lim yuzasidan savol va topshiriqlar.**

1. Yaxshi xislatlarga ega bo'lgan do'stlaringiz haqida so'zlang.
2. Yomon odatlarga misollar keltiring. Ularni yo'qotish uchun nimalar qilish kerak?
3. "Yaxshi topib gapirar, yomon — qopib" degan maqolning ma'nosini gapirib bering.
4. Yaxshi xislatlarning nomlarini daftaringizga yozing.



## IV. MEHNATIM — ROHATIM



**Maqol.** Mehnat — mehnatning tagi rohat.

### **HASHAR — XAYRLI VA SAVOBLI ISHDIR**

Xalqimizning eng yaxshi an'analari, uduumlari bor. Shulardan biri hashardir. Hashar biror ishni bиргалашиb bajarishda ko'pchilik bo'lib yordam berishdir. Otabobolarimiz bizlarga nasihat qilib:

— Bolalarim, qo‘ni-qo‘shni, qarindoshlarga ko‘mak beringlar, shunday qilish katta savobdir,  
— deganlar. Donolar aytgan: „Hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun“, “Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar“ kabi maqol va hikmatlarga rioya qilish zarur.

Hasharda ko‘pchilikning mehnati bilan ish unumli bo‘ladi va tez bitadi. Hasharda qatnashgan kishilarning ishini hasharboshi boshqarib turadi. Navro‘z, Xotira va qadrlash, Mustaqillik bayramlari oldidan har bir xonodon o‘z uy-joyini tozalashdan tashqari ko‘cha va mahalla ariqlarini hashar yo‘li bilan tozalaydilar, obodonlashtiradilar. Bahorda uy atroflarini ko‘kalamzorlashtiradilar: daraxt va gul ko‘chatlari o‘tqazib parvarishlaydilar.

**Hadislar.** 1. Xayrli va savobli ishlar insonni turli halokatlardan saqlaydi. 2. Odam-larning yaxshisi kishilarga manfaati ko‘p tekkanidir.

## TEJAMKORLIK VA TADBIRKORLIK

Uy-ro‘zg‘orda tejamkor bo‘lish insonning farovon yashashini ta’minlaydi. Buning uchun oila a’zolari mas’uldirlar. Barcha mahsulotlar katta mehnat orqali bizga yetib keladi. Mehnat qilgan odam o‘z mehnat mahsulini tejab-tergaydi. Bu fazilatni biz tejamkorlik odobi deymiz.

Bilasizmi, agar har kuni bir dona guruch, mosh to‘kilsa, bir oyda 30-31 ta, bir yilda 365 ta don isrof bo‘ladi. Shu tufayli tejamkorlik odobiga rioya qilish — barchamizning asosiy vazifamiz.

Tadbirkor kim? Masalan, siz akangiz bilan varrak yasab sotishingiz mumkin. Agar har bir varrak yuz so‘m bo‘lsa chandalab ko‘ring, sizlar bir kunda nechta varrak yasay olasiz. Qancha daromad qilishingizni ham hisoblang. Olingan daromaddan siz varrak qilish uchun mahsulotlar sotib olishingiz kerak bo‘ladi. Qolgan pul sizning foydangiz hisoblanadi.

Tadbirkor kishilar daromad olish uchun mehnat qiladilar va izlanadilar.

**Maqollar.** Yangini eski saqlar.

Hisobini bilmagan  
Hamyonidan ayrilar.

### **Hadis.**

Kimki hayotda tejamkor bo‘lsa, zinhor qashshoqlikka tushmaydi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Tejamkorlik nima?
2. Qanday ishlar savob va qanday ishlar gunoh hisoblanadi?
3. Tomib turgan jo‘mrakka idish qo‘ying, bir kunda qancha suv isrof bo‘lganini o‘lchang. Suvni behudaga oqizib qo‘ymaslikni odat qiling.

isrof — o‘rinsiz yoki ortiqcha sarf qilish;  
daromad — foyda.

## ENG YOQIMLI HID

*Anvar Sobirjon*


- Dunyoda nimaning hidi xushbo‘y va yoqimli?
- deb so‘rabdi Madina buvisidan.
- Eng yoqimli hid — non hidi. Uni aslo uvol qilib bo‘lmaydi, qizim, — javob beribdi buvisi.

Dalada yetishtirilgan don dasturxonimizda non bo‘lib yetib kelguncha unga minglab odamlarning mehnati singadi. G‘allakor donni yetishtiradi, kombaynchi uni o‘rib yanchadi. Don tegirmonda un qilib tortilgach, novvoy undan shirindan-shirin nonlar yopadi.

Lekin biz har doim ham ularning mehnatini qadrlaymizmi? Xalqimizda nonni qadrlagan elini e’zozlaydi, degan naql bor.

Ba’zi bolalar uydan yoki maktab oshxonasidan ortiqsa non olib, oxirigacha yemay, duch kelgan yerga tashlab ketadilar. Bu to‘g‘rimi? Siz bunday qilmaysizmi?

Shuni unutmaslik kerakki, yer yuzining uchdan bir qismida odamlar to‘yib non yemaydilar.



Ochlikdan sillasi qurib, nobud bo‘layotgan go‘-daklar bor.

Dunyoda eng totli va aziz ne’mat — non. Shunday ekan, uning har bir bo‘lagini, uvog‘ini as-rash, isrof qilmaslik har bir o‘quvchining muqadas burchidir.

### Savol va topshiriqlar.

1. Yerda yotgan nonni ko‘rsangiz yonidan o‘tib ketasizmi?
2. Qotgan nondan nimalar qilish mumkin?

### 3. Dasturxon atrofida o‘tirganingizda non uvoqlarini to‘kmaslikka odatlaning.

#### VAQT QADRI

Vaqtni tejash tejamkorlikni bildiradi. Vaqt qadri, undan unumli foydalanish har bir insonning o‘ziga bog‘liq. Siz 1-sinfda vaqt ni qanday sarflashni o‘rganib olgan edingiz. Shundan beri siz bir daqiqa vaqtingizni ham foydali ishlar qilishga sarflab, ko‘p narsalar o‘rganib oldingiz. Bobolar, buvilar nasihatlariga amal qildingiz. Bu sifatlarining maqtovga loyiq. Vaqt faqat insonlar uchun qadrli bo‘lmay, balki hayvonlar, qushlar, hatto hasharotlar uchun ham qadrli. Bir rivoyatda bir gala qushlar kuzda issiq o‘lkalarga uchishga hozirlanib-dilar. Qushlar orasida bir dangasasi bor ekan. Erta tongda uchib ketishlarini bilsa ham bamaylixotir uqlab yotaveribdi. Uyg‘onsa daraxt shoxlarida qo‘noqlagan birorta ham qushni ko‘rmabdi. Qushcha chor atrofga uchib nima qilishini bilmay, chirillabdi. Shunda baland shoxda qo‘nib turgan musicha kickina qushchaga rahmi kelib:

- Tez bo‘l, yelkamga chiq, seni qushlar galasiga eltib qo‘yaman, — debdi. Qushcha sevinib:
- Rahmat, — debdi va musichaning ustiga chiqib olibdi. Musicha uzoqlashib uchib borayotgan qushlar tomon uchibdi va yetib olgach:
- Ana qarindoshlaring, ular bilan birga ketgin!
- debdi.

### Savol va topshiriqlar.

1. Vaqt qadri haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Qushcha nima uchun qushlar galasi bilan ucha olmagan ekan?
3. Qaysi qush unga yordam berdi?
4. Qaysi qushlar siz turgan yerda qishlab qoladilar? Ularning nomini daftaringizga yozing.

### TEJAMLI BOLA

Alijon juda tejamli bola. Har bir narsani ayab, asrab ishlatadi. O‘quvchilarga xos odobni o‘zlashtirib olgan. Masalan, ayrim bolalar bir o‘quv yilida ona

tilidan 6-8 ta daftar tutishsa, Alijon atigi 4 ta daftar tutadi, xolos. Chunki u daftar sahifalarini aslo yirtib tashlamaydi, isrof qilmaydi.

Alijon faqat daftarlari ninigina emas, balki kitoblarini ham yaxshi saqlaydi. O'quv yili oxirida uning kitoblari yangi nashrdan chiqqanday turadi. Ayrim bolalarning kitoblari esa ushlab bo'lmaydigan holatga tushib qoladi.

Alijon rejali ish yuritgani, tejamli bo'lgani uchun hech toliqmaydi. U "Tejamaganning holi tang" degan maqolning ma'nosini yaxshi biladi.

**Maqol.** Ko'p bo'lsa ketar,  
Oz bo'lsa yetar.

### Savol va topshiriqlar.

1. Siz o'quv qurollaringizni qanday saqlaysiz?
2. "Hisobini bilmagan hamyonidan ayrilar" maqoli asosida kichik hikoya tuzing.

## SABR QILISH YAXSHI ODAT

Bir qishloqda kambag‘al oila yashar ekan. Ularning yetti farzandi bo‘lib, hammasining fe’li, xususiyati har xil ekan.

Kattasi juda sabrsiz, doimo nolib, ota-onasini kambag‘allikda ayblar ekan. Shunda otasi:

— O‘g‘lim, sabr bilan mehnat qil, natijasi yaxshi bo‘ladi. “Sabr tagi — sariq oltin” degan hikmat bekorga aytilmagan, sen kattasan, ukalaring ham katta bo‘lib qolishdi, xudo xohlasa, boybadavlat bo‘lib qolamiz, — deb nasihat qilibdi. Shunda o‘g‘il:

— Qachon siz aytayotgan ertak haqiqatga aylanadi, kutaverib toqatim toq bo‘ldi, ortiq chiday olmayman, bunday yashashni xohlamayman, — deb uydan chiqib ketibdi. Ota bechora: “Xoy to‘xta, ukalaringga o‘rnak bo‘lish o‘rniga sen shunday noma’qulchilik qilasanmi?” — deb faryod chekib qolaveribdi.

Yigit yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Ochlik, suvsizlik uni obdon qiynabdi. Yotib uxbab qolibdi. Tun yarimlab qolganda bo‘rilarning

uvillashidan uyg‘onib ketibdi. Bo‘rilar unga yaqinlashayotgan ekan. U qo‘rqib daraxtga chiqib olibdi, shundagina otasini eslabdi, qilgan ishidan pushaymon bo‘libdi.

Bolalar, bu rivoyatning davomini o‘zingiz to‘qing va xulosa chiqaring.

**Hikmat.** Biror ishda shoshilmang. Sabr va qanoat qiling.

## DANGASADAN HAMMA BEZOR

Harakat inson umrini uzaytiradi, sog‘lom va baquvvat qiladi. Dangasa insonlar hayotda juda qiynalib kun ko‘radilar. Sababi ular biror-bir kasbni puxta egallamaydilar. Bunday odamlar el-yurt hurmatiga sazovor bo‘lolmaydilar. Bu haqda “Dangasadan hamma bezor” degan maqol ham bor. Vaqt qadrini bilmagan inson o‘z qadrini ham bilmaydi.

Shavkat ismli bola erta-kech bekor yuradi. Hech narsaga qiziqmaydi. Biror ishni boshlasa, chala qoldiradi. Onasi biror ish buyursa:

— Boshim og‘riyapti, oyog‘im og‘riyapti, — deb bahona qiladi. O‘qishlari ham yaxshi emas. Tengdoshlari turli to‘garaklarga borib, kasb va hunar o‘rganadilar.

Shavkat bir kuni atrofni kuzatib turib chumolilarga ko‘zi tushdi. Tikilib qarasa, chumolilar qator bo‘lib inlariga oziq tashimoqdalar. Shavkat ularga qarab turib o‘zining dangasaligidan uyalib ketdi. Mitti chumolilar shunchalik serg‘ayrat bo‘lsa-yu, kap-katta bola bo‘lib uning qo‘lidan hech narsa kelmasa-ya!..

Shu kundan boshlab Shavkat ishyoqmaslikni tashlab, g‘ayratli bo‘lib, kattalarga yordam beradigan bo‘ldi.

### Savol va topshiriqlar.

1. Dangasaning yomon odatlarini misollar bilan gapirib bering.
2. Shavkat yomon odatdan qanday qutuldi?
3. Maqollarning mazmunini ota-onangizdan so‘rab, bilib oling.

## KUNGABOQAR VA TO'LQINJON

*Muhammadjon Qo'shoqov*

Kungaboqar gullari  
Pista bo'laman, debdi.  
Orzu qilib To'lqinjon  
Usta bo'laman, debdi.

Kungaboqar gullari  
Ochilibdi-kulibdi.  
Mix qoqay, deb To'lqinjon,  
Qo'lga bolg'a uribdi.

Kungaboqar har gulin  
Go'yo qalam qilibdi.  
Rom yasolmay To'lqinjon,  
Rosa alam qilibdi.

Kungaboqar oxiri,  
Pishib pista bo'libdi.  
To'lqinjon ham unnalib,  
Mohir usta bo'libdi.

Xoh o'simlik, xoh odam,  
Bo'lsa tirishqoq, bardam,  
Ko'ngil qo'ysa mehnatga,  
Yetar albat maqsadga.

### Savol va topshiriqlar.

1. Kungaboqar qanday joylarda o'sadi?
2. To'lqinjon duradgor usta bo'lish uchun qanday harakat qildi?
3. Siz qanday hunar egallashni istaysiz?
4. Turli hunarlar nomini daftaringizga yozing.

### KO'PRIK

(Ertak)

*Mahmud Murodov*

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir katta o'rmon  
bor ekan. Uning o'rtasidan anhor kesib o'tar ekan.

O'rmonda esa arrakash qunduz, ayiqpolvon,  
filpolvon, karnaychi g'oz, surnaychi o'rdak,  
tannoz tulki, usta qizilishton, xushovoz bulbul va  
boshqa hayvonlar, qushlar yashar ekan.

Qarindosh-urug‘lar anhorning ikki tomonida yashashar, bir-birlarinikiga borish-kelish juda qiyin ekan. Faqat qushlargina u yoqdan-bu yoqqa o‘tib, hol-ahvol so‘rab turisharkan.

Kunlardan bir kuni Sher barcha hayvonlarni yig‘ib:


— Anhorga ko‘prik solsak, qarindoshlar bir-birlarinikiga bemalol borib-kelib turardi, — debdi.

Bu gap ma’qul tushib, o‘rmondagi barcha hayvonlar, hatto qushlar ham ishga bel bog‘labdilar.

Karnaychi g‘oz, surnaychi o‘rdak va laylaklar nog‘ora chalib, hammani qurilishga chorlabdilar.

Arrakash qunduzlar ulkan daraxtlarni yiqitishebdi. Fillar xodalarni o‘rmondan tashib chiqibdi. Qizilishtonlar xodalarni o‘tkir tumshuqlari bilan do‘qillatib teshik o‘yibdilar. Ayiqpolvon gurzi bilan ko‘prik qoziqlarini qoqibdi. Xullas, har kim o‘z hunari bilan hasharda qatnashibdi. Faqat tulki o‘z ini oldida dumini tarab, oynaga qarab yota beribdi.

— Hoy tannoz tulki, — debdi xo‘roz, — hamma ko‘prik quryapti, nega sen bu yerda yotibsan?



— Mening husnimni ko‘ryapsanmi? — debdi tulki dumini ko‘z-ko‘z qilib, — menga ko‘prik kerak emas, bir sakrab, hilpiragan dumimni qanot qilib o‘taveraman!

Xo‘roz yana bir nima demoqchi ekan, tulki unga hamla qilibdi. Xo‘roz zo‘rg‘a qochib qolibdi. Bu voqeadan qurilishdagilar juda xafa bo‘lishib, ko‘prik bitgach, talkini undan o‘tkazmaslikka qaror qilibdilar. Xo‘rozvoy balandroq shoxga chiqib ko‘z-quloq bo‘lib turibdi.

Nihoyat, ko‘prik ham bitibdi. Kunlardan bir kuni talkining ham narigi qirg‘oqqa o‘tgisi kelib qolibdi. Biroq, ko‘prikka yaqinlashdi deguncha, xo‘roz baland ovoz bilan:

— Kel-yap-ti! — deb qichqiraveribdi.

Shunda ayiqpolvon talkini ko‘prikka yaqinlashtirmabdi.

Tulki narigi qirg‘oqqa o‘tish niyatida yugurib kelib bir sakragan ekan, shalop etib anhorning o‘rtasiga tushibdi. Baxtiga arrakash qunduzlar cho‘milishayotgan ekan, uni qutqarib qolishibdi. Tulki shalviragancha orqaga qaytibdi. Buni ko‘rgan hayvon-u qushlar toza kulgi qilishibdi. “Mehnatdan

qochganning holi mana shunday bo‘ladi”, — deb qichqiribdi Xo‘rozvoy.

Shu-shu tannoz tulki — dangasa tulki laqabini olgan ekan.

### Savol va topshiriqlar.

1. “Ko‘prik” ertagida qaysi hayvon dangasaligi uchun pand yedi?
2. Oilada ham, mакtabda ham mehnatdan qochmang.

**Maqollar.** Mehnat — mehnatning tagi rohat.


Qolgan ishga qor yog‘ar.

Hunaring bo‘lsa qo‘lingda,  
Non topilar yo‘lingda.

### Bo‘lim yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Mehnat insonga qanday foyda keltiradi?
2. Siz katta bo‘lganingizda qanday hunarni o‘rganmoqchisiz?
3. Mehnat haqida maqollarni yod oling va daftaringizga yozing.

## V. JAMOAT ORASIDA O'ZINI TUTISH



### KO'CHADA YURISH ODOBI

Tartibli, tarbiyali bola o'zini ko'chada ham, uyda ham yaxshi tutadi. Odob bilan yuradi. Ayniqsa, ko'chada, jamoat joylarida yurishda ehtiyyotkorlik kerak.

Sayr qilish yoki sayohatga borish — yaxshi odat. Sayr va sayohatda odam ko'p narsani ko'radi. Yaxshi odamlar bilan

uchrashadi. Ulardan shahar, qishloqlarimiz haqidagi yangiliklarni, qiziq voqealarni eshitadi.

Sayr-sayohat vaqtida odob saqlang va quyidagilarga rioya qiling:

- o'qituvchingiz yoki tarbiyachingiz gaplarini diqqat bilan tinglab, ko'rganlaringizni eslab qoling;
- tushinmagan narsalaringizni so'rab oling;
- ko'chada alanglab yurmang;
- odamlar gavjum joyda yelkangiz bilan, qo'lingiz bilan atrofingizdagilarni turtmang;
- birovni uzoqdan baland ovoz bilan chaqirmang;
- ochiq eshiklar oldidan o'tadigan bo'lsangiz, hovlilariga qaramang.

### **Bolalar, yo'lida yurganingizda quyidagilarga amal qiling:**

- \* Yo'lning qatnov qismini faqat maxsus belgilangan joylardan kesib o'ting.
- \* Yo'llarni piyodalar uchun mo'ljallangan svestoforning yashil chirog'i yonganda kesib o'ting.



\*Yaqinlashib kelayotgan transport vositalari-ning oldidan chopib o‘tmang.

\*Yo‘lkalar bo‘lмаган joylarda, yo‘lning chetidан transport harakatiga qarama-qarshi harakat-laning.

\*Yo‘lning qatnov qismiga uylar, to‘xtab turgan transport vositalari, daraxtlar orqasidan yugirib chiqmang.

\*Yo‘llarda hech qachon o‘ynamang.

\* Yo‘lda atrofdagilar sizni odobli bola ekanligingizni sezsinlar. Kattalarga salom bering, yordamlashing.

### Savol va topshiriqlar.

1. Ko‘chada yurganda nimalarga e’tibor qilasiz?
2. Yurganda odamlarga xalaqit bermaslik uchun nima qilish kerak?
3. Svetofor chiroqlarining vazifasini yaxshi bilib oling.

## QO'SHNICHILIK ODOBI

“Hovli olma, qo'shni ol”, “Qo'shning tinch, sen tinch” degan hikmatli so'zlar bor.

Chunki insonning yaxshi-yomon kunlarida qo'ni-qo'shni ular bilan hamdard va hamkor bo'ladilar.

Qo'shnilarni hurmatlash, ular bilan xushmuomalada bo'lish, zarur bo'lganida har ishda ularga yordamlashish kerak. Uyda radio, televizorni baland qilib qo'yish, baland ovozda gaplashish yaramaydi.

Qo'shnilar to'y-hashamlarda, hasharlarda bir-biriga yaqindan yordam beradilar. Kasal bo'lib qolsalar ham bir-birlaridan xabar olib turadilar.

Xayit bayramlari oldidan qo'shnilar bolalari orqali bir-birlarinikiga palov oshi va bayram pishiriqlari chiqaradilar. Xayit kuni esa kattalar birinchi bo'lib yon-atrofdagi qariyalarni e'zozlab ziyyorat qiladilar.

### Savol va topshiriqlar.

1. Qo'shnilariga qanday yordam berasiz?
2. Qo'shnilariga yoqmaydigan qiliqlarni aslo qilmang.

3. “Yon qo’shnik — jon qo’shnik” degan maqolning ma’nosini ota-onangizdan so’rab bilib oling.

## OVQATLANISH ODOBI

Ovqat insonga kuch-quvvat beradi.  
Ovqatlanishning qoidalari bor:

- ovqatlanishdan oldin qo’lni yuvish;
- qoshiqni o’ng qo’l bilan ushlab ovqatlanish;
- ovqatni shoshmay, “shapillatmay” yejish;
- ovqatlanayotgan vaqtida gapirmaslik;
- lagandagi ovqatni faqat o’z tomonidan olib yejish;
- kattalar qo’l uzatmay turib, ovqatga qo’l cho’zmaslik;
- “rahmat” deb dasturxon atrofidan turish;
- ovqat yeb bo’lgach, qo’lni yuvish.

### Savol va topshiriqlar.

1. Ovqat tanavvul qilishdan oldin nima qilish kerak?

2. Ovqat yeb bo‘lgach, nima deyish kerak?
3. Qanday ovqatlanish salomatlikka zarar keltiradi?
4. Quyuq va suyuq ovqatlarning nomlarini yozing.

## **MEHMON KUTISH ODOBI**

Oilaga mehmon kelishi qanday yaxshi, bu katta quvonch. “Mehmon otangdan ulug” degan maqol bor. “Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshik-dan”, — degan hikmatda mehmonning ulug‘ligi, kirib kelayotgan xonadonga fayz-u baraka olib kelishi ta’riflangan.

Uy egalari chaqirilgan yoki chaqirilmagan mehmonlarni ochiq chehra, yaxshi kayfiyat bilan kutib oladilar. Ayniqsa, oiladagi bolalar mehmon kelganida odob saqlashlari kattalarga xalaqit bermasliklari kerak.

## MEHMONDA

*Nasiba Ziyoviddinova*

Buvijonisi Dilnozani mehmonga olib boradigan bo‘ldi.

U darrov yuvinib, sochlarini silliq taradi. O‘rib, lenta bilan mahkam bog‘ladi. Keyin tirnoqlariga qaradi, ular top-toza edi. Dilnoza chiroyli, dazmollangan ko‘ylagini kiyib, buvijonisi bilan yo‘lga tushdi.

— Ona qizim, mehmonda o‘zingni yaxshi tutgin, xo‘pmi?

— Xo‘p bo‘ladi!

Dilnoza uygaga kirishi bilan uy egalariga salom berdi. Oyoq kiyimini bir chekkaga yechdi. Buvijonisining kavushlarini ham chetroqqa olib qo‘ydi. Uyda u tengi qizlar ham bor edi.

— Mehmon-mehmon o‘ynaymiz, — dedi mezbon qiz.

— Yo‘q, do‘xtir-do‘xtir o‘ynaymiz, — dedi shovqin solib uning singlisi.

— Qattiq gapirmaylik, — dedi Dilnoza kattalar tomonga sekin qarab qo‘yib, — buvijonlarimizga xalaqit bermaylik.

Qizlar sekin qo'shni xonaga kirib ketishdi.

... Bu orada Dilnoza mezbon qizlar bilan ularning ayasiga ham yordamlashdi. Yuvilgan idishlarni artib turdi.

Mehmondorchilik tugab, ular yo'lga otlanayotganda, mezbon aya dedilar:

- Nevarangiz menga judayam yoqdi. Yana kelganingizda, albatta, olib keling.
- Xo'p bo'ladi! — dedi buvisi.

## KIYINISH ODOBIBI

Insonning tartibligini uning kiyinishidan ham bilsa bo'ladi. Kiyim kiyishning ham qoidalari bor:

- kiyimingiz toza bo'lsin;
- o'zingizga loyiq va yarashadigan kiyimlarni kiying;
- mактабга kiyadigan kiyimlar va ko'chada kiyadigan kiyimlar bor, ularni joyiga qarab kiying;
- tungi kiyimlarni erta bilan yechib qo'ying;
- mактабга kiyib boradigan kiyimlarni mактабдан qaytgach, yechib, osib qo'ying;

- ish kiyimlarini ham ozoda saqlang;
- kiyimlarni vaqtı-vaqtı bilan yuvish va dazmollash zarur;
- kiyimlarni ta'mirlashni ham mustaqil bajarishga o'rganing.

### **Savol va topshiriqlar.**

1. Kiyinish odobi haqida nimalarni bilasiz?
2. Maktabda qanday kiyimda yurasiz?
3. Kir yuvishni, dazmol bosishni o'rganing.

### **Savol va topshiriqlar.**

1. Mehmonga borishdan avval qanday tayyorgarlik ko'rish kerak?
2. Mehmonda o'zingizni qanday tutdingiz?
3. Mehmon bo'lgach, uy egalariga nimalar deyish kerak?

*Yusuf Xos Hojib deydi:*

Mehmonga taklif qilinsangiz, oshni odob bilan yeng. Boshqalarning osh-ovqatini tatib ko'rmang,

o‘zgalarni zo‘rlab ovqatlanishga undash yaramaydi. Qanchalik to‘q bo‘lsangiz ham, taklif qilinganigizdan keyin ovqatdan yeish lozim. Bu sizning qadringizni oshiradi.

### Bo‘lim yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Mehmonga borganda bolalar o‘zlarini qanday tutishlari kerak?
2. Ovqatlanish qoidalarini aytib bering.
3. Yo‘l harakati qoidalarini nima uchun o‘rganamiz?

## ENG ULUG‘ KUNLAR

- |                   |   |
|-------------------|---|
| <b>1- sentabr</b> | — Mustaqillik kuni.                             |
| <b>2- sentabr</b> | — Bilimlar kuni.                                |
| <b>1- oktabr</b>  | — O‘qituvchilar va murabbiylar kuni.            |
| <b>8- dekabr</b>  | — O‘zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi kuni. |
| <b>1- yanvar</b>  | — Yangi yil.                                    |

- 14- yanvar** — Vatan himoyachilari kuni.  
**8- mart** — Onalar bayrami.  
**21- mart** — Navro‘z bayrami.  
**9- may** — Xotira va Qadrlash kuni.  
**1- iyun** — Bolalarni himoya qilish kuni.

Ramazon va qurbon hayitlari.


O‘zbekistonda har bir bayram va ulug‘ kunlar tantanali o‘tadi. Biz bolalar ham bu bayramlarga katta tayyorgarlik ko‘ramiz. Ota-onalarimizga o‘z qo‘limiz bilan yasagan sovg‘alarimizni topshiramiz.

Bundan tashqari oilamizda, mahallamizda, qarindoshlarimiznikida to‘ylar bo‘lib turadi. Biz uchun to‘ylar ham katta bayram.

Oilamizda ham ota-onalarimizning, aka-opalarimizning, uka va singillarimizning tug‘ilgan kunlarini ham bayram kabi nishonlaymiz. Bir-birimizni tabriklaymiz, o‘rgangan she’r va qo‘silqlarni aytamiz, raqsga tushamiz, bayram dasturxonini tayyorlashda qatnashamiz.

Bahorda va kuzda qushlar va gullar bayramini  
ham o'qituvchilarimiz boshchiligidagi nishonlaymiz.

Biz jonajon Vatanimizni, uning tabiatini, ajoyib  
odamlarini sevamiz. Biz dunyoda tinchlik bo'lishini,  
Vatanimiz gullab-yashnashini istaymiz.



# MUNDARIJA

I. O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat.....	5
II. Ota-onal — aziz va mo‘tabar .....	17
III. Yaxshi xislat — go‘zal fazilat .....	38
IV. Mehnatim — rohatim .....	64
V. Jamoat orasida o‘zini tutish .....	82

QUMRI ABDULLAYEVA, MUHARRAM YUSUPOVA,  
SITORAXON RAHMONBEKOVA

**ODOBNOMA**

2-sinf uchun darslik

4-nashri

*Toshkent— «Mehnat»— 2004*

Muharrir *A. Madrahimov*  
Dizayner *J. To'rayev*  
Rassomlar *N. Agapova, G. Bedarev*  
Badiiy muharrir *H. Qutluqov*  
Texnik muharrir *N. Sorokina*  
Musahhiha *F. Temirxo'jayeva*

Diapozitivdan bosishga ruxsat etildi 20.04.2004-y. Bichimi 70 x 90  $\frac{1}{16}$ . «Tayms» harfida  
terilib, ofset usulida bosildi. Kegli 18,5 shponli. Shartli b.t. 7,02. Shartli kr.ott. 29,24.  
Nashr t. 6,0. 50000 nusxa. Bahosi 9 46 so'm. Buyurtma № 3353

«Mehnat» nashriyoti, 700129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.  
Shartnoma № 07—2004.

Andaza nusxasi «Mehnat» nashriyotining kompyuter bo'limida tayyorlangan.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Toshkent matbaa kombinatida chop etildi.  
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.